



O'ZBEK SHE'RIYATIDA IDENTITETNING TARIXIY-POETIK ASOSLARI

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o'g'li,

Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, f.f.f.d.(PhD).

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1763>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 9

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

identitet, shaxs identiteti, o'zlik, mumtoz adabiyot, Alisher Navoiy, komillik, irfon, ishq, fano, milliy identitet, jadid adabiyoti, ma'naviy o'zlik

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada o'zbek adabiyotida shaxs identitetining tarixiy-poetik shakllanishi mumtoz va jadid adabiyoti materiallari asosida tahlil qilinadi. Identitet tushunchasining zamonaviy gumanitar fanlarda keng qo'llanilishiga qaramay, uning mazmuniy asoslari bo'lgan o'zlik, mansublik, "men" va "biz" munosabati, ruhiy kamolot, xotira hamda ma'naviy o'zini anglash masalalari milliy adabiyotda qadimdan mavjud ekani asoslanadi. Tadqiqotda zamonaviy identitet terminini mumtoz matnlarga bevosita tatbiq etishdan ko'ra, shaxsning o'zini anglashi va ma'naviy maqomini belgilashga xizmat qiluvchi poetik shakllarni aniqlash tamoyili ustuvor qo'yiladi. Alisher Navoiy ijodi misolida shaxs identiteti komillik, ko'ngil, irfon, ishq, nafs va ruh ziddiyati hamda fano tushunchalari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Navoiy poetikasida "men"ning yuksalishi o'zini mutlaqlashtirish orqali emas, nafsoniy chegaralardan xalos bo'lib, ruhiy-ma'naviy kamolot sari ko'tarilish orqali yuz berishi ko'rsatiladi. Shuningdek, Bobur lirikasida identitetning Vatan sog'inchi, g'urbat va shaxsiy iztirob bilan, Mashrab she'riyatida esa isyonkor ruh, darveshona erkinlik va ilohiy ishq bilan bog'liq xususiyatlari yoritiladi. Jadid adabiyotiga o'tilganda identitet milliy uyg'onish, ma'rifat, til, erkinlik, xalq taqdiri va ijtimoiy mas'uliyat bilan yangi mazmun kasb etgani Fitrat, Cho'lpon hamda Abdulla Avloniy ijodi misolida ochib beriladi. Natijada zamonaviy o'zbek she'riyatidagi shaxsiy, milliy va ijtimoiy identitet shakllarining tarixiy ildizlari mumtoz adabiyotdagi ma'naviy o'zlik hamda jadid adabiyotidagi milliy-ma'rifiy o'zlik an'analari bilan uzviy bog'liq ekani xulosalanadi. Maqolada tarixiy-qiyosiy va hermenevtik yondashuvlardan foydalanilib, poetik matnlardagi o'zlik modeli davrning diniy-falsafiy, ma'rifiy va ijtimoiy qarashlari bilan uyg'un holda izohlanadi. She'riy misollar orqali identitetning tashqi ijtimoiy maqomdan ko'ra botiniy o'zgarish, axloqiy tanlov va ma'naviy tajriba bilan bog'lanishi dalillanadi. Tadqiqot o'zbek adabiyotida identitet kategoriyasining tarixiy davomiyligi va mazmuniy transformatsiyasini aniqlashga xizmat qiladi hamda nazariy asoslarini yoritib beradi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 9

KEYWORDS

identity, personal identity, selfhood, classical literature, Alisher Navoiy, perfection, "irfon" (gnosis), love, "fano" (annihilation of the self), national identity, Jadid literature, spiritual selfhood

ANNOTATION

This article analyzes the historical and poetic formation of personal identity in Uzbek literature, drawing upon materials from both classical and Jadid literary traditions. It argues that, despite the widespread use of the concept of "identity" in contemporary humanities, the underlying elements – such as the sense of self, belonging, the relationship between "I" and "we," spiritual maturation, memory, and spiritual self-awareness – have long been present in national literature. Rather than directly applying the modern term "identity" to classical texts, the study prioritizes identifying the poetic forms that serve to define an individual's self-perception and spiritual status. Through the example of Alisher Navoi's work, personal identity is interpreted in relation to concepts such as perfection ("komillik"), the heart ("ko'ngil"), mystical knowledge ("irfon"), love ("ishq"), the conflict between the carnal self ("nafs") and the spirit ("ruh"), and self-annihilation ("fano"). The article demonstrates that in Navoi's poetics, the elevation of the "I" occurs not through self-absolutization, but by transcending the limitations of the carnal self and ascending toward spiritual and moral perfection. Furthermore, it highlights aspects of identity in Babur's lyric poetry – linked to longing for the homeland, the experience of exile, and personal anguish – and in Mashrab's poetry, where it is associated with a rebellious spirit, dervish-like freedom, and divine love. The works of Fitrat, Cho'lpon, and Abdulla Avloniy illustrate how the concept of identity acquired new meaning within Jadid literature – specifically through the lenses of national awakening, enlightenment, language, freedom, the destiny of the people, and social responsibility. The study concludes that the historical roots of personal, national, and social identity forms in modern Uzbek poetry are inextricably linked to the traditions of spiritual selfhood found in classical literature and the national-enlightenment-oriented selfhood of the Jadid era. Employing historical-comparative and hermeneutic approaches, the article interprets the model of selfhood in poetic texts in harmony with the religious-philosophical, educational, and social views of the respective eras. Through poetic examples, it demonstrates that identity is linked less to external social status and more to inner transformation, moral choice, and spiritual experience. This research serves to identify the historical continuity and semantic transformation of the identity category in Uzbek literature while elucidating its theoretical foundations.

Kirish

Garchi identitet tushunchasi bugungi gumanitar fanlarda faol qo'llanadigan keng qamrovli ilmiy kategoriya sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning mazmunini tashkil etuvchi o'zlik va mansublik, individual hamda jamoaviy xotira, "men" va "biz", "men" va "U" o'rtasidagi munosabatlar adabiy tafakkurda azaldan mavjud.

Mumtoz o'zbek she'riyatida shaxsning o'zligini anglash masalasi hozirgi nazariy terminlar orqali emas, balki ko'ngil, ruh, nafs, ishq, ma'rifat, fano, baqo, komillik, darveshlik, g'urbat, Vatan va ilohiy haqiqat sari intilish kabi tushunchalar vositasida badiiy-falsafiy ifoda topgan. Shu bois mumtoz matnlarni identitet nazariyasi asosida talqin qilishda tarixiy-poetik xususiyatlarni hisobga olish lozim. Bunday asarlarga zamonaviy "identitet" atamasini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishdan ko'ra, ularda

insonning o'zini tanishi, ruhiy maqomini belgilashi, borliqdagi o'mini anglab yetishi va ma'naviy kamolot sari harakatining poetik shakllarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili

Mumtoz she'riyatdagi shaxs o'zini zamonaviy adabiyotga xos alohida va mustaqil "men" sifatida emas, yuksak ma'naviy mezonlar tizimining bir qismi sifatida idrok etadi. Bu tizimda insonning qadr-qimmatini nasab, mansab, boylik yoki tashqi mavqe bilan emas, qalb pokligi, nafs ustidan g'alaba, ishq va ma'rifatga yetishish hamda komillikka intilish bilan o'lchanadi. Demak, mumtoz adabiyotda shaxs identiteti, avvalo, ruhiy-axloqiy mazmun kasb etib, "men"ni tasdiqlashdan ko'ra uni tarbiyalash, poklash va oliy haqiqatga bog'lash jarayonida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy merosi mumtoz o'zbek adabiyotida shaxs

o'zligining eng teran badiiy-falsafiy talqinlaridan biridir. Navoiy yaratgan inson obrazi oddiy lirik kechinma sohibi emas, balki ma'naviy kamolotga intiladigan, nafs bilan ruh o'rtasidagi ziddiyatni boshdan kechiradigan va ishq vositasida o'zligini yangilaydigan subyektdir.

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul "Navoiyga qaytish" asarining birinchi qismida shoir poetikasining tub mohiyatini sharhlar ekan, unda "bitta bosh maqsad – komillik, bitta sarbon tuyg'u – kamolot tuyg'usi, "asosiy birgina nur qaynog'i – Ishaq" mavjudligini alohida qayd etadi [6, 3-b.].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini o'zbek she'riyatida identitetning tarixiy-poetik shakllanish jarayonini diaxron va poetik tizim yaxlitligida o'rganish tamoyili tashkil etadi. Identitet badiiy matnda shaxsning o'zligini anglash, individual va jamoaviy "Men"ning namoyon bo'lishi, milliy-madaniy mansublik, ruhiy-ma'naviy o'zlik hamda tarixiy xotiraning poetik ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli tadqiqotda identitetning zamonaviy she'riyatdagi ko'rinishlari alohida, uzilgan hodisa sifatida emas, balki o'zbek mumtoz adabiyoti, tasavvufiy tafakkur, milliy poetik an'ana va XX asr she'riyatida davom etgan badiiy-estetik tajribaning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy-qiyyosiy, tarixiy-poetik, germeneytik, struktur-semantik, tipologik va intertekstual tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi. Tarixiy-poetik metod yordamida o'zlikni anglash motivining mumtoz she'riyatdan yangi va zamonaviy o'zbek she'riyatigacha bo'lgan evolyutsiyasi, uning poetik shakl va mazmun jihatidan o'zgarish qonuniyatlari kuzatildi. Tarixiy-qiyyosiy yondashuv turli adabiy davrlarda "Men", inson, millat, Vatan, ruh, nafs, ishq, xotira va mansublik kabi tushunchalarning poetik talqinini o'zaro qiyoslash imkonini berdi. Bunda mumtoz she'riyatdagi irfoniy va ma'naviy o'zlik konsepsiyasi bilan keyingi davrlardagi milliy, ijtimoiy va individual identitet shakllari o'rtasidagi vorisiylik va transformatsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi.

Germeneytik metod she'riy matnlarning ko'p qatlamli mazmunini, xususan, lirik qahramonning o'zlikni anglash bilan bog'liq ichki kechinmalari, ruhiy izlanishlari, tarixiy va madaniy xotiraga munosabatini kontekstual talqin qilishda qo'llanildi. Struktur-semantik tahlil orqali identitetni yuzaga chiqaruvchi obraz, ramz, motiv, oppozitsiya va poetik konseptlarning badiiy matn tarkibidagi funksiyasi aniqlandi. Jumladan, "Men – o'zga", "ruh – nafs", "Vatan – g'urbat", "xotira – unutish", "milliylik – begonalashuv", "o'tmish – bugun" singari semantik qarama-qarshiliklarning identitet mazmunini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Tipologik yondashuv asosida o'zbek she'riyatida kuzatiladigan ma'naviy-irfoniy, shaxsiy, milliy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy identitet ko'rinishlarining mustarak va farqli xususiyatlari belgilandi. Intertekstual tahlil esa zamonaviy she'riyatdagi identitet obrazlarining mumtoz adabiy an'ana, Qur'oni va tasavvufiy timsollar, tarixiy shaxslar, xalq og'zaki ijodi hamda milliy madaniy kodlar bilan aloqasini aniqlashga xizmat qildi. Bu usul orqali an'anaviy obraz va motivlarning yangi tarixiy-estetik sharoitda qayta semantizatsiyalanishi hamda zamonaviy shaxs o'zligini ifodalash vositasiga aylanishi kuzatildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar uyg'unligi identitetni faqat zamonaviy nazariy tushuncha sifatida emas, balki o'zbek poetik tafakkurida uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan, har bir adabiy davrda yangi semantik va estetika mazmun bilan boyib borgan tarixiy-poetik kategoriya sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Natijalar

Mazkur fikr Navoiy poetikasidagi shaxs o'zligini komillik, kamolot va ishqning o'zaro birligi orqali tushuntirishga imkon beradigan muhim nazariy tayanichdir. Olim talqinida komillik tashqi da'vo yoki tayyor maqom emas; u insonning ichki o'zgarishi, o'z kamchiliklarini tan olishi va ruhiy poklanish orqali takomillashishi bilan bog'liq holatdir. Bu qarashning poetik ifodasini Navoiy "Lison ut-tayr"da quyidagicha beradi:

*Noqis uldurkim o'zin komil degay
Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay [7, 199-b.].*

Ushbu bayt mazmunidan ko'rinadiki, Navoiy insonni mutlaq nuqsonsiz mavjudot sifatida tasavvur qilmaydi. Aksincha, ko'plab kamchiliklarga ega bo'la turib, o'zini komil sanaydigan kishilar shoiring tanqid nishoniga aylanadi. Irfoniy mazmundan yiroq holda o'zini pok va yetuk qilib ko'rsatishga urinish chin komillik belgisi emas. Navoiy bunday da'vogarlarni asl qusur egalari sifatida baholaydi. O'z xato va nuqsonlarini anglay oladigan, ularni bartaraf etishga intiladigan hamda yo'l qo'yilgan kamchilikni takrorlamaslikka harakat qiladigan inson esa haqiqiy komillikka yaqinlashadi.

Alisher Navoiy poetikasida ma'naviy identitet, eng avvalo, nafs hukmidan qutulish va ruhiy "men"ning yuzaga kelishi bilan bog'lanadi. Ibrohim Haqqul "nuqson ichida komillik"ni "nafs dastidan xalos bo'lmagan o'zlik" deya izohlaydi hamda Navoiy komillik konsepsiyasini

"nafs hukmronligidan butunlay ozod yangi bir ruhoniy "men" salohiyati bilan bog'laydi" [6, 5-b.]. Bu yondashuv mumtoz adabiyotdagi o'zlik tushunchasini zamonaviy psixologik identitetdan farqlab anglashga yordam beradi. Navoiyda "men"ning yuksalishi uni mutlaqlashtirish bilan emas, nafsoniy o'zlikdan voz kechib, ruhoniy "men" tomon ko'tarilish orqali sodir bo'ladi. Shunday ekan, mumtoz shaxs identiteti o'zlikni qat'iy mustahkamlash emas, balki uni poklash va yangi ma'naviy darajaga olib chiqish jarayonidir. Navoiy lirikasida insonning yaratilishdagi maqomi, ko'ngilning irfoniy imkoniyati va shaxsning ma'naviy qudrati ham aynan shu asosda poetik-falsafiy jihatdan yoritiladi. "Lison ut-tayr"ning boshlanishida keltirilgan quyidagi baytlar bunga yaqqol misoldir:

*O'farinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichida beavaz.
Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilsim ichra o'zin pinhon qilib [8, 4-b.].*

Mazkur baytlar mumtoz adabiyotda shaxs o'zligining ma'naviy-irfoniy asoslarini anglash uchun muhim poetik manba hisoblanadi. Ularda inson oddiy biologik mavjudot doirasida emas, balki olam yaratilishining maqsadi va mavjudotlar orasida alohida maqom sohibi sifatida talqin qilinadi. Navoiy nazarida inson yaratilishning tasodifiy natijasi emas; u ilohiy hikmatni va ma'rifatni idrok eta oladigan, boshqa mavjudotlardan ajralib turadigan noyob mavjudotdir. Baytlarning semantik qatlamiga e'tibor berilganda, shaxsning asl qimmatini nasab, martaba, mol-dunyo yoki ijtimoiy mavqe kabi tashqi belgilarda emas, uning botiniy salohiyatida, ya'ni irfonni qabul qilish va anglash qobiliyatida ekan ayon bo'ladi. Shu sababli "Ko'nglin oning maxzani irfon qilib" misrasi shaxs identitetining poetik talqinida alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy ko'ngilni "irfon xazinasini" deb tasvirlar ekan, irfonni oddiy bilimdan yuqori turuvchi botiniy anglash, ilohiy haqiqatni qalban sezish va ruhiy yuksalish jarayoni sifatida namoyon etadi. Demak, ko'ngil irfon xazinasini sifatida talqin qilinganda, o'zlikni anglash ham ruhiy poklanish, ilohiy ma'rifatga yaqinlashish va Haqiqat bilan ichki aloqa o'rnatish orqali yuz beradi. Navoiy ijodida identitet shu ma'noda zamonaviy individuallashgan "men" ko'rinishidan ko'ra ko'ngil, irfon va ma'naviy kamolot bilan bog'liq botiniy hodisadir. Ushbu baytlarni identitet nazariyasi doirasida o'qish shuni ko'rsatadiki, Navoiy uchun insonning o'zini anglash jarayoni ichki mohiyatiga qaytish, ko'ngil xazinasini ochish va botiniy sirni idrok etish bilan chambarchas bog'liq. Shaxs o'zini tayyor ijtimoiy rol yoki tashqi maqom orqali emas, qalbida yashirin irfoniy imkoniyat orqali taniydi. Shu jihatdan "Lison ut-tayr"dagi mazkur parcha mumtoz o'zbek adabiyotida o'zlikning ruhiy-ma'rifiy, botiniy va ilohiy haqiqatga yo'naltirilgan modelini asoslashga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy lirikasida, ayniqsa "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlarda ko'ngil obrazi ishq, hijron, tavhid, fano, imon va ruhiy poklanish tushunchalari bilan uzviy aloqada talqin etiladi. Jumladan, "Badoyi ul-vasat"dagi "Ey navbahori orazing subhig'a jonparvar havo" matla'li g'azalda shoir "ko'ngulning xilvatini" matlubdan boshqa barcha narsalardan xoli etish zaruratini ilgari suradi:

*Zohid, ko'ngulning xilvatini matlub g'ayridin orit,
Sen sayr qilsang qil, kerak ko'nglungga bo'lsa inzivo [8, 4-b.].*

Baytda ko'ngil insonning botiniy makoni sifatida tasavvur qilinadi. Uni "g'ayr"dan xoli qilish esa tasavvufiy-ma'naviy o'zlikning shakllanishi, ya'ni shaxsning ichki olamini Haqqa yo'naltirish jarayoni tarzida namoyon bo'ladi. "Inzivo" so'zi "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da "uzlat, go'shanishinlik, odamlardan o'zini chetga olish" ma'nolarida izohlangan. Biroq mazkur bayt kontekstida bu tushuncha tashqi olamdan mutlaq uzilish emas, balki ko'ngilni "g'ayr"dan tozalash va botiniy yolg'izlikka kirish holatini anglatadi. Shoir Haqni va shu orqali o'zini anglashni istagan insonga murojaat qilib, chin ruhiy sayr uchun avvalo qalbni matlubdan boshqa bog'liqliklardan poklash lozimligini uqtiradi. Chunki ko'ngilning bunday inzivosizis ma'naviy sayrning haqiqiy mazmuni yuzaga chiqmaydi. Demak, baytdagi ruhiy holat ichki "men"ni nafsoniy va dunyoviy rishtalardan xalos etib, ma'naviy o'zlikni anglashga tayyorlaydigan bosqich sifatida talqin qilinadi.

Navoiy lirikasida nafsni yengish orqali o'zini tanish va shu yo'l bilan Haqiqatga yaqinlashish g'oyasi ko'plab g'azallarda uchraydi. Xususan, "Badoyi ul-vasat" tarkibidagi "Xavf" radifli g'azalda ham shoir yuqoridagi poetik yo'nalishni davom ettirib, nafsoniy "men"dan voz kechish zaruratini ta'kidlaydi:

*Solmay o'zluk naqdin o'zidin tutmag'il dashti fano,
Kim, og'ir yuklarga bu yo'lda yetar bisyor xavf [8, 4-b.].*

Lirik qahramon fano yo'liga qadam qo'yish uchun, eng avvalo, "o'zlik naqdini", ya'ni dunyoviy bog'liqlik, kibr va nafsoniy "men" yukini tashlash lozimligini anglaydi. Shu bois baytda shaxs identiteti o'zini namoyish etish yoki dunyoviy pozitsiyasini mustahkamlash bilan emas, aksincha, tashqi va nafsoniy "men"dan kechib, ruhiy-ma'naviy o'zlikka o'tish jarayoni bilan izohlanadi.

*Nechakim do'zaxdin o'lsa xavf mahshar ahlig'a,
Menda hajring shu'lasidindur yuz ul miqdor xavf [8, 4-b.].*

Bu baytda lirik "men"ning ruhiy holati hajr alangasi orqali ochiladi. Mahshar ahli uchun eng katta qo'rquv do'zax bo'lsa, oshiq dunyosida asosiy xavf ayriliqdir. Shu tarzda lirik subyektning shaxsiy-ma'naviy identiteti ishqiy tajriba va hijron kechinmasi orqali belgilanadi. Hajr bu yerda o'zlikning sinov maydoniga aylanib, oshiqning kimligini va uning ruhiy maqomini anglash mezonini vazifasini bajaradi.

Mumtoz she'riyatda shaxs o'zligini shakllantiruvchi omillar qatorida ishq markaziy o'rin tutadi. Ko'plab poetik matnlarda u identitetni yuzaga keltiradigan va o'zgartiradigan asosiy qudrat sifatida tasvirlanadi. Navoiy ijodida ham ishq oddiy hissiy kechinma doirasida qolmaydi; u insonni ichki sinovdan o'tkazadigan, nafsoniy chegaralardan ozod etadigan va yuksak ruhiy haqiqat sari yetaklaydigan kuchdir. Bu jihatdan "Layli va Majnun" dostonidagi Majnun obrazi ayniqsa xarakterlidir. Ishq ta'sirida u odatiy ijtimoiy maqomlar, aqlning kundalik mezonlari va dunyoviy qadriyatlardan uzoqlashadi. Navoiy talqinidagi majnunlik shunchaki telbalik emas, balki ishq tufayli o'zlikning boshqa, yuqoriroq ruhiy holatga ko'chishidir.

*Ey, aql sening yo'lungda g'ofil,
Kim, telba sening yo'lungda oqil [7, 3-b.].*

Dostonidagi ushbu baytda "telba" va "oqil" tushunchalari tazod vositasida qarama-qarshi qo'yiladi. Jamiyat mezonlariga ko'ra telba deb qabul qilingan Majnun ishq yo'lida aslida oqil sifatida baholanishi identitet talqini uchun muhimdir. Chunki uning "men"i tashqi jamoatchilik hukum bilan emas, ishqiy haqiqatning ichki mezon bilan belgilanadi. Shu sabab ishq Majnun shaxsiyatining shakllanishida yetakchi omilga aylanadi. U ishqdan avval boshqa bolalar qatori odatiy maktab o'quvchisi Qays edi; aynan ishq uni boshqalardan ajratib, "Majnun" maqomiga olib chiqdi. Layliga bo'lgan ishq bo'lmaganida, ehtimol, Qays ham odatiy hayot yo'lidan ketgan bo'lardi. Demak, Navoiy ishqni insonning o'zligini hamda Haqni anglashiga eltuvchi asosiy ma'naviy vosita sifatida talqin etadi.

Alisher Navoiy poetikasida fano ham shaxs identitetini tushuntirishga xizmat qiladigan muhim nazariy va badiiy tushunchalardan biridir. Ibrohim Haqqul ta'kidlaganidek, Navoiy dunyoqarashida komillikni ta'minlovchi hol – fano, Haq visoliga olib boruvchi yo'l esa fano yo'lidir. Mazkur talqin mumtoz adabiyotda o'zlikni topish jarayoni g'oyat paradoksal tarzda, ya'ni o'zidan kechish orqali amalga oshishini ko'rsatadi. Fano shaxsning yo'q bo'lib ketishini emas, nafsoniy chegaralarni tark etib, ruhiy mavjudlikning yangi holatiga o'tishini anglatadi. Shu ma'noda Navoiy lirikasida identitet mavjud "men"ni o'zgarish holda saqlashdan ko'ra, uni yangilash, poklash va yuksak ma'naviy borlik bilan bog'lash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Najmiddin Komilov tasavvuf mohiyatini inson qalbi va ruhiyatiga qaratilgan, jaholat hamda xudbinlikka qarshi turadigan va axloqiy poklikni targ'ib etadigan ta'limot sifatida izohlaydi. Bu qarash Navoiy she'riyatidagi identitet masalasini sharhlashda ham muhim nazariy asos beradi. Zero, shoir ijodidagi komillik, ishq, fano hamda nafs va ruh qarama-qarshiligi tasavvufiy tafakkurdan ajralgan holda tushuntirib bo'lmaydi. Shuning uchun mumtoz o'zbek she'riyatida shaxs o'zligini tahlil etishda insonni ruhiy, axloqiy va ilohiy haqiqat bilan bog'langan mavjudot sifatida ko'rish asosiy metodologik tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi kuzatishlar Navoiy ijodida shaxs identiteti uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalishda ko'ngil va irfon insonning ichki, botiniy olamini ochadi. Ikkinchi yo'nalishda ishq lirik "men"ni nafsoniy chegaralardan olib chiqib, ruhiy yuksalishga yo'naltiradi. Uchinchi yo'nalishda esa fano tufayli shaxs tuban nafsga bog'langan qiyofadan voz kechib, yangilangan ruhiy "Men"ga yaqinlashadi. Shu asosda mumtoz o'zbek she'riyatidagi identitetni individual mustaqillikni ta'kidlashdan ko'ra ma'naviy kamolot, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatga daxldorlik bilan belgilash mumkin.

Muhokama

Milliy adabiyotning keyingi bosqichlarida, jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida o'zlik boshqa poetik omillar orqali ochiladi. Ijodkorning hayotiy tajribasi, biografik taqdiri va dunyoqarashi uning individual uslubiga ta'sir qilgani kabi, poetik identitetining shakllanishida ham sezilarli rol o'ynaydi. Bobur she'riyatida Vatan sog'inchi, yaqinlardan ko'rilgan xiyonat va ichki iztirob lirik subyektning o'zligini belgilovchi asosiy omillardan bo'lib chiqadi. Shu jihatdan uning ijodida shaxsiy va milliy identitetning o'zaro tutashuvi yaqqol ko'rinadi. Bobur lirik qahramoni faqat oshiq yoki hukmdor sifatida emas, balki Vatandan yiroqda yashab, o'z hayoti va o'zligini xotira, sog'inch va iztirob orqali idrok etayotgan shaxs qiyofasida namoyon bo'ladi.

Mashrab she'riyatida o'zlikni anglash boshqa yo'sinda – isyonkor ruh, dunyoviy me'yorlarga bo'ysunmaslik, qolipga aylangan diniy qarashlarga nisbatan ichki erkinlik va ilohiy ishq orqali ifodalanadi. Uning lirik qahramoni jamiyat taklif etgan tayyor maqom va rollarga sig'maydi; o'zligini darveshona erkinlik, ishqiy jazava, ruhiy qarshilik va Haqiqatni bevosita izlash jarayonida taniydi. Shu ma'noda Mashrab ijodi o'zbek adabiyotida qarshilik va ichki erkinlikka tayangan o'zlik modelini namoyon etadi. Uning lirik "men"i mavjud ijtimoiy-axloqiy tartib bilan murosaga kelmaydigan, botiniy haqiqatni tashqi me'yorlardan ustun qo'yadigan poetik subyekt sifatida shakllanadi. Mumtoz adabiyotda o'zlikni anglash asosan ma'naviy-axloqiy, diniy-falsafiy va ruhiy kamolot bilan bog'langan bo'lsa, jaded adabiyotga kelib bu masala milliy uyg'onish, ma'rifat, til, Vatan, xalq, erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan to'yingan yangi mazmun kasb etdi. Jaded adabiyoti o'zbek adabiy tafakkurida individual va milliy identitet taraqqiyotining navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Endilikda "men" faqat shaxsiy kechinma egasi yoki ma'naviy izlanishdagi inson emas, balki millat taqdiri uchun javobgarlikni his qiladigan, xalqni uyg'otishga intiladigan va jaholatga qarshi kurashadigan faol ijtimoiy subyekt sifatida anglana boshladi.

Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Avloniy singari jaded ijodkorlarida o'zlikni anglash milliy uyg'onish g'oyasi bilan bevosita tutashadi. Fitratning adabiy-estetik qarashlarida millatning o'zini tanishida til, tarix, madaniyat va ma'rifat hal qiluvchi o'rin egallaydi. Uning talqinida milliy identitet faqat nasl-nasab yoki etnik mansublik bilan chegaralanmaydi; u ma'rifatlilik, erkin tafakkur, madaniy uyg'onish va millatning o'z taqdirini idrok etish qobiliyati orqali mazmun kasb etadi. Shu sabab Fitrat ijodida o'zlikni anglash, avvalo, intellektual va ma'rifiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Cho'lpon she'riyatida o'zlik muammosi erkinlik, Vatan, millat, ruhiy uyg'onish va mustaqil inson g'oyalari bilan uyg'un holda talqin qilinadi. Uning lirikasidagi "men" davr va jamiyat bilan ziddiyatga kirishadigan, tutqunlikdan ozodlik sari intiladigan, millatning ruhiy uyg'onishini o'zining shaxsiy dardi darajasida his etadigan poetik subyektdir. Shu bois Cho'lpon she'riyatida shaxsiy va milliy identitetni bir-biridan ajratish qiyin: lirik qahramonning individual iztirobi xalqning tarixiy og'rig'i bilan birlashadi. Bu xususiyat jaded lirikasida ijtimoiy faol va erkinlikka yo'naltirilgan yangi identitet shakli yuzaga kelganini ko'rsatadi. Abdulla Avloniy merosida esa o'zlikni anglash tarbiya, axloq, ma'rifat va milliy mas'uliyat tushunchalari orqali ifodalanadi. Avloniy nazarida millat o'zligini, eng avvalo, ilm va tarbiya vositasida anglaydi. Shaxs ham o'zini jamiyatdan ajralgan alohida mavjudot sifatida emas, millat taraqqiyotiga daxldor va uning ravnaqi uchun mas'ul inson sifatida idrok etadi. Natijada jaded adabiyotdagi shaxsiy identitet ijtimoiy burch, ma'rifiy uyg'onish va milliy mas'uliyat bilan chambarchas bog'lanadi.

Jaded adabiy tafakkurida til ham identitetni belgilaydigan markaziy omillardan biriga aylandi. U millatning tarixiy davomiyligini ta'minlovchi, madaniy xotirani avloddan avlodga yetkazuvchi va o'zlikni saqlovchi vosita sifatida tushunildi. Sotsiolingvistik yondashuvlarda ham til etnik va madaniy identitet shakllanishining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtayi nazardan jadidlarning ona tili, milliy maktab, matbuot va adabiy tilga doir qarashlari o'zbek adabiy tafakkurida lingvistik identitetning tarixiy ildizlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa

Mumtoz va jaded adabiyotda identitet bir xil shaklda emas, turli tarixiy-poetik mazmunlarda namoyon bo'ladi. Mumtoz adabiyotda u, asosan, komillik, ishq, ruhiy poklanish, Vatan sog'inchi, g'urbat va ilohiy haqiqat sari intilish bilan ifodalansa, jaded adabiyotda milliy uyg'onish, ma'rifat, til, erkinlik, xalq taqdiri hamda ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq yangi semantik qatlam kasb etadi. Shunday qilib, zamonaviy o'zbek she'riyatida uchraydigan shaxsiy, milliy va ijtimoiy identitet ko'rinishlari tarixiy jihatdan mumtoz adabiyotdagi ma'naviy o'zlik hamda jaded adabiyotdagi milliy-ma'rifiy o'zlik an'analari bilan uzviy aloqadordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ricoeur P. Oneself as Another. Chicago: University of Chicago Press, 1992.
2. Bakhtin M. M. Author and Hero in Aesthetic Activity // Art and Answerability: Early Philosophical Essays. Austin: University of Texas Press, 1990. P. 4–256.
3. Бахтин М. М. Автор и герой в эстетической деятельности // Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979. С. 7–180.
4. Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 4-жилд. Тошкент: Маънавият, 2006.
5. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. Тошкент: Навоий университети, 2018.
6. Haqqul I. Navoiyga qaytish. Toshkent: Fan, 2007.
7. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Mukammal asarlar to'plami. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996.
8. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Badoyi ul-vasat. Toshkent: Fan, 1990.
9. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Тошкент: Akademnashr, 2010.
10. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
11. Назаров Б. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. Тошкент: Тафаккур қаноти, 2012.